


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="181 400 647 746">Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillariga davlat tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv-metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali materiallar yaratish</p> 	<p data-bbox="741 357 1122 392">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="741 397 1137 432">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <p data-bbox="674 437 2058 555">O‘quv-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish maqsadida yetakchi mutaxassislar, amaliyotchi o‘qituvchilar va soha ekspertlaridan iborat ijodiy ishchi guruhni shakllantirish hamda uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish;</p> <p data-bbox="674 560 2058 678">Davlat tilini o‘qitishga doir CEFR (A1–C1) darajalarini qamrab olgan “Ilk qadam” (A1), “Muomala” (A2), “Nutq” (B1), “Davlat tilida ish yuritish” (B2–C1) o‘quv-metodik qo‘llanmalar va ko‘rgazmali materiallarni yaratish;</p> <p data-bbox="674 683 2058 758">Ishlanmalarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish, ekspert xulosalari asosida takomillashtirish va joriy etishga tayyorlash;</p> <p data-bbox="674 762 2058 837">O‘quv-metodik qo‘llanmalar va ko‘rgazmali materiallarni ishlab chiqish, belgilangan tartibda nashrga tayyorlash hamda ta’lim muassasalariga yetkazish;</p> <p data-bbox="674 842 2058 960">Davlat tilini o‘qitish bo‘yicha yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar, baholash vositalari, audio-video materiallar hamda onlayn test tizimi integratsiya qilingan raqamli ta’lim platformasini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va bosqichma-bosqich joriy etish.</p> <p data-bbox="674 965 2058 1125">Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga qarashli tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="674 1129 2058 1289">Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="674 1294 2058 1410">Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>